



Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Xorazm viloyatida sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2025-yilning 1-aprel holatiga ko'ra viloyatda 3 401 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 888 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,1 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 442 tasi (13,0 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 384 tasi (11,3 %) kiyim ishlab chiqarishga, 335 tasi (9,9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 328 tasi (9,6 %) mebel ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-aprel holatiga ko'ra





II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 6 957,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 110,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	6 957,0	110,2
Urganch shahar	989,0	114,2
Xiva shahar	103,1	104,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog'ot tumani	138,3	104,6
Gurlan tumani	121,6	76,1
Qo'shko'pir tumani	217,7	107,1
Urganch tumani	348,9	107,5
Xazorasp tumani	179,1	106,7
Tuproqqal'a tumani	3 136,4	109,7
Xonqa tumani	305,2	104,7
Xiva tumani	139,7	106,1
Shovot tumani	283,9	103,2
Yangiariq tumani	225,7	105,7
Yangibozor tumani	213,9	109,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqala tumanida (51 629,9 ming so'm), Urganch shahrida (6 343,8 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (3 417,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Urganch shahrida (112,4 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yanvar-mart oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6 618,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,1 %) ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 0,4 mlrd so'm (0,01 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 284,6 mlrd so'm (4,1 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 53,6 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2025-yilning yanvar-mart oylarida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-mart oylarida viloyatda 28 215,4 tonna paxta tolasi (2024-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 12,3 % ga kamaygan), 40 914,2 tonna shakar (71,3 % ga ko'paygan), 1 417,9 tonna o'simlik yog'i (14,9 % ga ko'paygan), 4 436,5 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (62,7 % ga kamaygan) xamda 22 409 dona yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (18,0 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	16 855	18 996	22 409
Maxsus yengil avtomobillar, dona	5 937	6 144	7 204
Paxta tolasi, t	33 994,1	32 159,7	28 215,4
Shakar, t	57 053,6	23 880,2	40 914,2
O'simlik yog'i, t	2 309,2	1 234,5	1 417,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	18 998,9	11 904,9	4 436,5
Paxta chigiti, t	55 642,0	49 679,9	45 520,0
Paxtadan yigirilgan ip, t	6 763,7	8 506,6	14 199,4

*2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,4 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2024-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 148,0 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,05 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida 0,13 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 41,8 % (39,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,7 % (4,8 %), quyi texnologiyali 52,5 % (52,0 %)ni tashkil etgan.

Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan





yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-mart oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-mart oylarida 22 409 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,0 % ga oshdi), 7 204 dona maxsus yengil avtomobillar (17,3 % ga oshdi) avtomobillari ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan yangil avtomobillar, donada yanvar-mart oylarida





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 113,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 133,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	371,8	313,9	351,7
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	371,8	313,9	351,7
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	56,0	52,0	69,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 29,9 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 10,3 ko'payganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 142,4 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-mart*	2024-yil yanvar-mart*	2025-yil yanvar-mart
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	1 248 474,0	2 602 609,0	2 869 450,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv	28 118 195,0	35 337 917,0	45 917 061,0

bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm

4 064 969,0


6 895 215,0

16 711 565,0

**2023-2024-yillarning yanvar-mart oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1 196,5 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 17,2 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-mart oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 19,0 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha



statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

U. Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

